



FARG'ONA VILOYATI FARG'ONA TUMANI HOKIMINING QARORI

2025-yil 9-yanvar

20-11-163-Q/25

Farg'ona tumani hokimligi

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 20-dekabrdagi 861-son qarori asosida qabul qilingan viloyat hokimining 2025-yil 3-yanvardagi 5-11-0-Q/25-sonli qarori ijrosini ta'minlash haqida

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 20-dekabrdagi "Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisining, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari o'rinnbosarlarining 2024-yil uchun eng muhim samaradorlik ko'rsatkichlarini (KPI) tasdiqlash to'g'risida"gi 861-sonli qarori asosida qabul qilingan viloyat hokimining 2025-yil 3-yanvardagi 5-11-0-Q/25-sonli qarori ijrosini ta'minlash maqsadida,

Q A R O R Q I L A M A N:

1.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 20-dekabrdagi "Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisining, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari o'rinnbosarlarining 2024-yil uchun eng muhim samaradorlik ko'rsatkichlarini (KPI) tasdiqlash to'g'risida"gi 861-sonli qarori asosida qabul qilingan viloyat hokimining 2025-yil 3-yanvardagi 5-11-0-Q/25-sonli qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2.Vazirlar Mahkamasining mazkur qarori bilan:

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisining, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari o'rinnbosarlari faoliyatining 2024-yil uchun eng muhim samaradorlik ko'rsatkichlari (KPI) belgilanganligi;

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisining, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlarining o'rinnbosarlari faoliyatining 2024-yil uchun eng muhim samaradorlik ko'rsatkichlari(KPI) 1-14-ilovalarga muvofiq tasdiqlanganligi;

"Samaradorlik.uz" platformasidagi va qog'ozda tasdiqlangan eng muhim samaradorlik ko'rsatkichlari (KPI) o'rtasida tafovut mavjud bo'lganda, platformadagi samaradorlik ko'rsatkichlari (KPI) qo'llanilishi;

eng muhim samaradorlik ko‘rsatkichlariga (KPI) erishilishi to‘g‘risidagi ma’lumotlar noto‘g‘ri to‘ldirilganda tegishli mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbar xodimlariga intizomiy jazo qo‘llanilgan holda tuzatish kiritilishi;

eng muhim samaradorlik ko‘rsatkichlariga (KPI) erishilishi monitoringini yuritish va ularga erishish natijalarini tasdiqlash uchun Vazirlar Mahkamasi tarkibiy bo‘linmalarining mas’ul xodimlariga platformadan foydalanish huquqi berish tartibi belgilanganligi ijro uchun qabul qilinsin.

3.Tuman hokimining barcha o‘rinbosarlari o‘n kun muddatda hokim o‘rinbosarlari faoliyatining eng muhim samaradorlik ko‘rsatkichlarini (KPI) tasdiqlasin;

hokim o‘rinbosarlari faoliyatining eng muhim samaradorlik ko‘rsatkichlariga erishish bo‘yicha oylik ish rejalarini tasdiqlanishini ta’minlasin.

4.Tuman hokimligi Tashkiliy-kadrlar guruhi (I.Xo‘janazarov) tumanlar hokimliligi xodimlarining mehnat unumdorligini tahlil qilgan holda, har bir xodimning vaqtidan unumli foydalanish tizimini tashkil etish hamda xodimlarni kasbiy o‘stirish va malakasini oshirish bo‘yicha aniq chora-tadbirlarni belgilash hamda tuman hokimligi tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish ishlari samaradorligini oshirish hamda tizimda ochiqlik va shaffoflikni ta’minlash choralarini ko‘rsin.

5.Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilishni o‘z zimmamda qoldiraman

Tuman hokimi v.v.b



**ABDURAXIMOV
OTABEK.NEMATOVICH**